



Ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilinganlik sababli yashash ruxsati yoki sertifikat

Agar ish beruvchingiz sizni ekspluatatsiya qilgan yoki o'z majburiyatlariga sezilarli darajada sovuqqonlik qilgan bo'lsa, siz uzaytirilgan ruxsat yoki ishlash va ish beruvchini o'zgartirish uchun kengaytirilgan huquq sertifikatiga ariza berishingiz mumkin. Buning uchun siz Finlandiyada ishlash huquqini o'z ichiga olgan yashash ruxsatiga ega bo'lishingiz lozim.

Agar siz mavsumiy ish sertifikati bilan yoki yashash ruxsatisiz Finlandiyada ishlagan bo'lsangiz, bunday ruxsat yoki sertifikat uchun ariza bera olmaysiz.

Agar sizga ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilinganlik sababli uzaytirilgan ruxsat yoki ishlash uchun kengaytirilgan huquq sertifikati taqdim etilsa, siz o'zingiz xohlagan istalgan sohada ishlappingiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, siz ishlash uchun cheklanmagan huquqqa ega bo'lasiz.

Ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilinganlik sababli uzaytirilgan ruxsat yoki sertifikatga ariza berish

Agar joriy yashash ruxsatingizning amal qilish muddati tugash arafasida bo'lsa va hali yangi ish beruvchiga ega bo'lmasangiz, uzaytirilgan ruxsat uchun ariza bering

Uzaytirilgan ruxsat ish qidirish yoki biror biznesni boshlash uchun taqdim etiladi va u bir yil davomida amal qiladi. Bu ruxsat avvalgi yashash ruxsatingizning amal qilish muddati tugaganidan keyin kuchga kiradi. [Ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilinganlik sababli uzaytirilgan ruxsat uchun qanday ariza berish haqida ko'rsatmalarni](#) o'qing.

Agar yaroqli yashash ruxsatiga ega va yangi ish beruvchini topgan bo'lsangiz, sertifikat uchun ariza bering

Ishlash uchun kengaytirilgan huquq eski ish beruvchingizni tark etish va yangi ish beruvchi uchun ishlashni boshlash jarayonini osonlashtiradi. [Ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilinganlik sababli ishlash uchun kengaytirilgan huquq sertifikatiga qanday ariza berish haqida ko'rsatmalarni](#) o'qing.

Ish beruvchi tomonidan sezilarli sovuqqonlik yoki ekspluatatsiyaga quyidagilar misol bo'lishi mumkin:

- ish beruvchi sizni asossiz uzoq soatlar davomida ishlashga majbur qilsa;
- ish beruvchi mehnat shartnomasida siz bilan kelishilgan maoshni to'lamagan bo'lsa;
- ish beruvchi siz yoki oilangiz hayotiga tahdid qilsa.

[Nimalar ish beruvchi tomonidan sezilarli sovuqqonlik yoki ekspluatatsiya hisoblanishi mumkinligi yuzasidan misollarning](#) kengaytirilgan ro'yxati.

Finlandiyada bajarilgan har qanday ish Finlandiya qonunchiliigiga muvofiq bo'lishi lozim. Bu, boshqa qoidalar bilan birga, hech bir xodimga kam haq to'lanmasligi yoki hech bir xodim xavfli ish sharoitlarida ishlashga majbur qilinmasligini anglatadi.



Agar oilaviy aloqalar asosida Finlandiyada yashash ruxsatiga ega biror oila a'zongiz bo'lsa:

Sizga ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilinganlik sababli uzaytirilgan ruxsat yoki sertifikat taqdim etilgan taqdirda ham, uning rezidentlik maqomi o'zgarishsiz qoladi. Biroq, agar bu oila a'zongiz keyinchalik uzaytirilgan yashash ruxsati uchun ariza bersa, u yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishi lozim.

Ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilinganlik sababli yashash ruxsati va odam savdosi qurboni uchun yashash ruxsati orasida qanday farq bor?

Ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilinganlik sababli yashash ruxsati yoki sertifikat faqatgina ishlash huquqini o'z ichiga olgan Finlandiyada yashash ruxsatiga ega shaxslarga beriladi. Odam savdosi qurboni uchun yashash ruxsati esa Finlandiyada yashash ruxsatiga ega bo'limgan shaxslarga ham berilishi mumkin. [Odam savdosi qurboni uchun yashash ruxsati](#) sahifasida batafsil ma'lumot olishingiz mumkin.

Bat afsil ma'lumot

[Ishda muammolar bormi?](#)